

Andijon viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-may dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 077 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 100 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 977 tani tashkil qildi.


2026-yilning yanvar-may oyilarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 13 425,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-may oyilariga nisbatan 109,8 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 276,3 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 139,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 12 149,0 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 615,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 129,3 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 3 047 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 31 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 3 016 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026-yilning yanvar-may oyilarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 5 748,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 15,6 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 5 147,9 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,0 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 89,6 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Andijon (1,9 b.) shaharida va Oltinko'1 (4 065,1 b.), Shaxrixon (252,1 b.) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 319 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 317 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-may oyilarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 6 473,1 mlrd so'mga yetdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan 109,9 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 98,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR



Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: A. Abdulxapizov Tel: +998742288000 (6090)	Ijrochi: N. Usmanova Tel: +998742288000 (6041)	Manzil: 170100, Andijon sh., M.Tiklanish ko'chasi, 36-a
--	--	--	---